XXI asrda butun dunyoda elektron tijorat jadallik bilan ommalashib bormoqda. Bugungi kunda shartnomaviy munosabatlar asosan onlayn formatga o'tilayotganligi sababli, majburiyatlar ijrosini raqamli makonda huquqiy tartibga solish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli platformalar soni kundan kunga ortib, elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining safi kengaymoqda. Natijada bozor ishtirokchilari o'rtasidagi raqobat kuchayib, hatto tovarlarni qaytarib olish tizimida ham elektron tijorat platformalari iste'molchilar uchun bir-biridan qulayroq shart-sharoitlarni taklif qilmoqda.

Elektron tijoratda qaytarish siyosati qo'llanishini o'rganishning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda huquqiy nazariya va amaliyot uyg'unlikda rivojlanmayapti. Oqibatda amaliyotda mavjud bo'lgan, biroq qonunchilikda o'z aksini topmagan, o'ziga xos odat huquqi qoidalari shakllanmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi – elektron tijoratda tovarni sotuvchiga qaytarishning huquqiy jihatlarini tadqiq etish, ilg'or xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida qiyosiy-huquqiy tahlilni amalga oshirish, an'anaviy tijoratdan farqli o'laroq, elektron tijoratdagi qaytarish siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, qaytarish muddatlarini platformalarning ommaviy ofertasi tahlili orqali o'rganish hamda O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Shmidt va Kernan kabi olimlar tovarni qaytarish masalasini iste'molchilarga mahsulotlarni osongina qaytarib berish va to'langan pulni qaytarib olish imkoniyatini taqdim etuvchi o'ziga xos siyosat sifatida talqin qilganlar (Schmidt & Kernan, 1985). Tsao, Tyurina, va Filatovlarning fikriga ko'ra, elektron tijoratda xaridorlarning ishonchni qozonishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri aynan tovarlarni qaytarishning samarali mexanizmi hisoblanadi (Tsao et al., 2019). Mahalliy olim L. Maxmudov (2025) bu borada shunday yozadi: "Qaytarish siyosatida qaytarish shartlarini belgilash, tovarni qaytarish va almashtirish tartibini platformada aniq bayon qilish, xaridor huquqlarini himoya qilish, qaytarish jarayonida mijoz huquqlarini buzmaslik; tovar xaridorga mos kelmasa yoki nuqsonli bo'lsa, uni qaytarish yoki almashtirishni ta'minlash muhim o'rin tutadi. Ushbu amallar orqali elektron tijorat platformasi qonun va halollik tamoyillari asosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin".

Ayrim olimlarning fikricha, onlayn to'lov, mahsulotni qaytarish va kafolat majburiyatlarini tartibga soluvchi maxsus qoidalarning mavjudligi elektron tijorat shartnomalarini tuzishda yuzaga keladigan asosiy xususiyatlardan biridir. Bunday choralar tovar-pul munosabatlarining subyektivi sifatida to'g'ridan to'g'ri xaridorning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan (Solod, 2024). Janakiraman va Sirdalning fikriga ko'ra, qaytarish siyosati chakana sotuvchilar tomonidan xaridorlar o'rtasidagi tavakkalchilik darajasini kamaytirish hamda rag'batlantirish vositasi sifatida taklif etiladi; bunda mijoz o'z fikrini o'zgartirsa, mahsulotni qaytarib yuborish imkoniga ega bo'ladi va bu jarayondagi xarajatlar ko'p hollarda chakana sotuvchi tomonidan qoplanadi (Janakiraman & Syrdal, 2016).

Ayrim onlayn do'konlar sotilgan mahsulotlar qaytarib olinmasligini ta'kidlab, xaridor oldida tovarni almashtirish yoki uning qiymatini qaytarish bo'yicha hech qanday majburiyatni zimmlariga olmaydilar. Bunday holatlar elektron tijorat sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ishonch mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki an'anaviy bozorda xaridor tovarni bevosita ko'zdan kechirishi, uning sifatini tekshirishi hamda sotuvchi bilan muloqot qilishi mumkin bo'lsa, onlayn muhitda bu kabi imkoniyatlar cheklangan. Shu bois

elektron tijoratda tovarni sotuvchiga qaytarish bo'yicha maxsus qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, quyida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron tijoratda tovarni sotuvchiga qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali mazkur masala doirasidagi nazariy va amaliy muammolarni tadqiq etish hamda tegishli takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tadqiqot jarayonida tahlil, umumlashtirish, qiyosiy huquqiy, tizimli va formal-huquqiy kabi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi.

Asosiy qism

Har bir tovarni qaytarish siyosati tovarning tabiati, undan foydalanish maqsadi, sifati va boshqalar kabi turli omillar bilan belgilanadi. Xaridorning elektron xaridiga qoniqishini maksimal darajada oshirish, shuningdek, ishlab chiqaruvchi, chakana sotuvchi yoki sotuvchini elektron biznesda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yo'qotish va zararlardan himoya qilish uchun qaytarish siyosatining turli modellari ishlab chiqilgan va foydalanib kelinmoqda. Oxir-oqibat, qaytarish siyosatining maqsadi iste'molchilarning qoniqishini va sotuvchi yoki savdogarga sodiqligini ta'minlashdir (Kawa, 2019). Shuningdek, qaytarish siyosati ishlab chiqarishning past narxiga va raqobatbardoshlikni oshirishga olib kelishi mumkinligi kuzatilgan (Dobroselskiy et al., 2021). Qo'shma Shtatlarda onlayn xaridlarning taxminan 16,5 foizi qaytariladi (Statista, 2025), Buyuk Britaniyada esa onlayn buyurtmalarning taxminan 30 foizi qaytariladi, jismoniy chakana savdoda esa bu ko'rsatkich atigi 8 foizni tashkil qiladi (Gineva, 2016). Qaytarilishning yuqori darajasi elektron tijoratning tarkibiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Germaniya elektron tijorat amaliyotida 14 kunlik *Widerrufsrecht* (shartnomadan voz kechish huquqi) iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishning markaziy huquqiy instituti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur institut iste'molchiga masofadan tuzilgan shartnomadan kamida 14 kun ichida, ayrim hollarda esa 30 kungacha bo'lgan muddatda, sabab ko'rsatmasdan voz kechish imkoniyatini beradi (Putra, 2026). Ushbu huquqning to'lovni kechiktirib amalga oshirish mexanizmlari hamda bepul qaytarish xizmatlari bilan uyg'unlashuvi iste'molchilar tomonidan bir mahsulotning bir nechta o'lcham yoki variantlarini buyurtma qilish, keyinchalik esa ulardan mos kelmaganlarini qaytarish amaliyotining keng tarqalishiga xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi qaytarish siyosatining biznes va iste'molchilarga ulkan ta'sirini e'tirof etgan holda, a'zo davlatlar ichida iste'molchilar va sotuvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni tartibga solish uchun iste'molchilar huquqlari to'g'risidagi Direktivani e'lon qilgan. Unda masofaviy hamda tijorat binolaridan tashqarida amalga oshiriladigan savdo va shartnomalar muhim o'rin egallaydi.

Mazkur Direktivada masofaviy yoki binolardan tashqarida shartnoma tuzgan sotuvchilar uchun, majburiyatlar qatori, tovar yoki xizmatlarning asosiy xususiyatlari hamda iste'molchi tomonidan tovarni qaytarish huquqini amalga oshirish shartlari, muddatlari va tartib-taomillari haqida xaridorga ma'lumot berish majburiyati belgilangan. Direktivaning 9-moddasiga ko'ra, iste'molchining hech qanday sabab ko'rsatmasdan shartnomani bekor qilish va tovarni qaytarish huquqini amalga oshirishi uchun 14 kunlik muddat joriy etilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'z milliy qonunchiligiga muvofiq ushbu muddatni 30 kungacha uzaytirishi mumkinligi qayd etilgan (European Parliament and Council of the European Union, 2011).

Bundan tashqari, Direktivaning 37-moddasida "Masofaviy savdoda iste'molchi shartnoma tuzishdan oldin tovarlarni ko'ra olmasligi sababli, u qaytarib berish huquqiga ega bo'lishi kerak. Xuddi shu sababga ko'ra, iste'molchiga sotib olgan tovarlarini ularning tabiati, xususiyatlari va ishlashini aniqlash uchun zarur bo'lgan darajada sinab ko'rish va tekshirishga ruxsat berilishi kerak"ligi belgilangan (European Parliament and Council of the European Union, 2011).

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qonunchiligiga asosan, tovarni qaytarish shartnomada to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmagan taqdirda ham, imperativ qonun hujjatlarida nazarda tutilganligi bois, iste'molchi tomonidan hech qanday sabab ko'rsatmasdan sotuvchiga qaytarilishi mumkin. Shuningdek, masofaviy savdoda (jumladan, elektron tijoratda) xaridorga sotib olingan mahsulotni ko'zdan kechirishi va tekshirishi uchun maxsus muddat taqdim etiladi. Biroq bu qoida O'zbekiston Respublikasi

qonunchiligida mavjud emas – milliy qonunchiligimizda iste'molchi tomonidan tovarni qaytarish yoki almashtirish asoslari va shartlari qat'iy belgilab qo'yilgan.

Xitoy qonunchiligida ham elektron tijorat platformalarida xaridorlar ehtiyojini qondirish hamda ularning huquqlarini himoya qilish maqsadida tovarlarni sotuvchiga qaytarishning qonuniy muddatlari belgilangan. Bunda qaytarish so'rovi tizim tomonidan qabul qilinishi va xaridor qaytarish algoritmidagi kuzatuv raqamini yuklashi bilan jarayon avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining "Iste'molchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 25-moddasida "Agar tovarlar internet, televizor, telefon yoki pochta orqali sotilgan bo'lsa, iste'molchilar ularni qabul qilib olgan kundan boshlab yetti kun ichida qaytarib berish huquqiga ega va buning sababini tushuntirishga majbur emas" degan qoida mustahkamlangan (People's Republic of China, 2013).

Iste'molchi tomonidan onlayn sotib olingan tovarlarni qanday qaytarish mumkinligini aniqlashtirish uchun Sanoat va savdo ma'muriyati Qonunning 25-moddasini aniqlashtirish maqsadida onlayn sotib olingan tovarlarni 7 kunlik shartsiz qaytarish bo'yicha vaqtinchalik choralarni ("Vaqtinchalik choralar") ishlab chiqqan. Yetti kunlik shartsiz qaytarish bo'yicha chora-tadbirlarga ko'ra, iste'molchilar onlayn xaridlarni olingan kundan boshlab 7 kun ichida hech qanday sababsiz qaytarib berishlari mumkin. 7 kunlik shartsiz qaytarish bilan qamrab olinmaydigan tovarlar, jumladan, maxsus tayyorlangan tovarlar, yangi va tez buziladigan tovarlar, onlayn yuklab olingan yoki iste'molchilar tomonidan muhri ochilgan audiovizual mahsulotlar, kompyuter dasturlari kabi raqamli tovarlar va yetkazib beriladigan gazetalar hamda davriy nashrlar nazarda tutilgan (Cheng, 2017).

Bunda iste'molchilar tomonidan qaytarilayotgan tovarlar foydalanilmagan holatda bo'lishi talab etiladi. Sotuvchi qaytarilgan mahsulotlarni qabul qilib olgan kundan boshlab yetti kun ichida iste'molchiga u tomonidan to'langan pul mablag'larini qaytarib berishi shart. Agar taraflar o'rtasidagi shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarni qaytarish bilan bog'liq transport xarajatlari iste'molchining zimmasiga yuklatiladi. Shunday qilib, Xitoy qonunchiligida elektron tijoratda tovarlarni qaytarish tartibi yuqoridagi qonun hujjatlari bilan qat'iy tartibga solingan bo'lib, unga ko'ra xaridor mahsulotni qabul qilganidan keyin 7 kunlik muddatda hech qanday sabab ko'rsatmasdan qaytarish huquqiga ega hamda qaytarish xarajatlari to'liq xaridor tomonidan qoplanadi. Shuningdek, mazkur Qonun hujjatlarida elektron tijorat muhitida qaytarib olinmaydigan tovarlarning maxsus ro'yxati ham belgilab qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Federal qonuni 26.1-moddasiga muvofiq, xaridorlar onlayn do'kondan sotib olgan har qanday tovarini 7 kun ichida sababsiz qaytarib berish huquqiga ega (Russian Federation, 1992). Sifati rasvo bo'lgan mahsulotlarni faqat uning qadoqlari butun bo'lsa, tovar ko'rinishi va xususiyatlari saqlangan hamda undan foydalanish belgilari bo'lmagan taqdirdagina qaytarish mumkin. Biroq bu qoidadan mustasno holatlar mavjud: maxsus buyurtma asosida tayyorlangan yoki tikilgan buyumlar, (masalan, xaridorning o'lchamlari va maxsus dizayni bo'yicha tikilgan shimlar) agar sifati joyida bo'lsa, qaytarib olinmaydi. Agar onlayn xarid qilingan mahsulotda biror nuqson aniqlansa, xaridor o'z xohishiga ko'ra pulni qaytarib olishni, almashtirishni yoki ta'mirlashni so'rashi mumkin. Nuqson qachon va kimning aybi bilan kelib chiqqanini aniqlash uchun mustaqil ekspert bahosi o'tkazilishi mumkin. Agar kamchilikka ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi aybdor deb topilsa, xaridor onlayn-do'konga rasmiy shikoyat arizasi yuboradi. Sotuvchi esa bu arizaga asosan talabni tasdiqlashi yoki asosli rad javobini berishi shart.

Xaridor pulni qaytarishni so'raganda – ariza ko'rib chiqilgan kundan boshlab 10 kun ichida pulni almashtirishi shart. Nuqsonli mahsulotni almashtirib berish uchun 7 kun beriladi. Agar almashtirilishi kerak bo'lgan mahsulot do'konda tugab qolgan bo'lsa, bu muddat 1 oygacha uzaytirilishi mumkin. Mahsulotdagi nuqsonni tuzatish uchun maksimal 45 kun ajratiladi. Agar onlayn-do'kon iste'molchining qonuniy shikoyatiga javob bermasa yoki o'z majburiyatlarini bajarmaslikda davom etsa, xaridor huquqlarini himoya qilish uchun Rospotrebnadzorga (iste'molchilar huquqlarini nazorat qiluvchi federal xizmat) shikoyat qilishi yoki sudga murojaat qilishi mumkin.

Sotuvchi xaridorni aldaganda yoki mahsulotni qaytarib olishdan bosh tortgan taqdirda, mazkur munosabatlar fuqarolik qonunchiligi asosida tartibga solinadi. Bunday vaziyatda xaridor, eng avvalo,

onlayn-do'konga rasmiy da'vo arizasi yuborishi lozim. Agar sotuvchi muammoni tinchlik yo'li bilan hal qilishdan bosh tortsa, xaridor masalani sud tartibida ko'rib chiqishni talab qilishga haqli. Sud qaroriga binoan, sotuvchi xaridorga buyum narxini qoplashi, mustaqil ekspertiza o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni va yetkazilgan ma'naviy zararni qoplashi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, onlayn-do'kon iste'molchining qonuniy talablarini sudgacha bo'lgan tartibda ixtiyoriy ravishda bajarmagani uchun sudda undirilgan umumiy summaning 50 foizi (yarmi) miqdorida alohida jarimaga tortiladi.

Turli internet-do'konlar va savdo platformalarida xaridor tovar yoki mahsulotni qaytarishi mumkin bo'lgan muddatlar (kunlar soni) ularning ichki qoidalar va mintaqaviy qonunchilik talablaridan kelib chiqib belgilangan bo'ladi. Masalan, *AliExpress* Yevropa Ittifoqi qonunchiligi talablariga muvofiq, muayyan tovar guruhlari (xususan, erkaklar uchun mo'ljallangan "Tabiiy charm + mikrofiber qo'shmali charm poyabzallar" uchun 14 kunlik bepul qaytarish imkoniyatini joriy etgan. Ya'ni xaridor buyurtma o'ziga yetkazib berilgan kundan boshlab o'n to'rt kun ichida hech qanday ortiqcha to'lovlarsiz tovarni qaytarib berishni va pulni qaytarib olishni talab qilish huquqiga ega. Bunday qaytarish siyosati elektron tijorat platformasining foydalanish shartlarida aniq belgilab qo'yiladi (*AliExpress*, n.d).

O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni oltinchi bobida Elektron tijorat sohasida tovarlarni yetkazib berish, nuqsonli mahsulotni almashtirib berish va (yoki) uning kamchiliklarini bartaraf etish, shuningdek, to'langan mablag'larni xaridorga qaytarishning o'ziga xos huquqiy jihatlari mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu normalar sotuvchi tomonidan o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilmagan taqdirda qo'llanadi. Qonunning 26-moddasiga asosan, "Xaridor mahsulotning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir yoki boshqa turdagi nuqsonlarni aniqlagan taqdirda, sotuvchi uni aynan shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganda esa xaridor talab qo'ygani paytdan e'tiboran 20 kun ichida almashtirib berishi shart" (Republic of Uzbekistan, 2022).

Bundan tashqari, qonunchilikka ko'ra xaridor tomonidan to'langan pul summasini unga qaytarish, tovar uchun haq to'lash qaysi shaklda amalga oshirilgan bo'lsa, aynan o'sha shaklda amalga oshiriladi. Shartnomaga muvofiq xaridor tomonidan to'langan pul summasini qaytarish bilan bog'liq xarajatlar to'liq sotuvchining zimmasiga yuklanadi.

Xalqaro qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda faqat tovarni qaytarishning umumiy huquqiy asoslarigina ko'zda tutilgan. Biroq zamonaviy platformalarda mavjud bo'lgan: "tezkor refund" (mablag'ni lahzada qaytarish), "pickup point" (tovarlarni qaytarish punktlari)da mahsulotni darhol qaytarib olish kabi mexanizmlar qonunchilik darajasida mustahkamlangan. Natijada, ushbu jarayonlarni tartibga solish masalasi to'liq raqamli platformalarning ichki qoidalar (ixtiyori)ga tashlab qo'yilgan. Boshqacha aytganda, raqamli tijoratda joriy etilgan "tezkor qaytarish" tizimi amaliyotda (de-fakto) mavjud bo'lsa-da, qonunchilikda (de-yure) o'z aksini topmagan.

Ikkinchidan, elektron tijoratda tovarni qaytarish institutining amaldagi huquqiy tartibga solinishi ko'proq an'anaviy savdo modeliga asoslangan. U zamonaviy raqamli platformalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi, bu esa nazariya va amaliyot o'rtasida sezilarli tafovutni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, elektron savdo platformalari tomonidan soddalashtirilgan qaytarish (tezkor qaytarish) mexanizmlarining joriy etilishini qonuniy jihatdan majburiy qilib belgilash lozim. Bunda xaridorga pul mablag'larini qaytarish muddati 14 ish kunidan oshmasligi shart. Mazkur taklifdan ko'zlangan asosiy maqsad – elektron tijoratda xaridorlarni kuchaytirilgan himoya tizimi bilan ta'minlash hamda raqamli savdoning tezkorlik prinsipiga moslashishdir.

Uchinchidan, elektron savdo platformalarining iste'molchi oldida ma'lumotlarning ishonchliligi va qaytarish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi uchun sotuvchi bilan solidar javobgarligi to'g'risidagi alohida normani qonunchilikka kiritish taklif etiladi. Bundan tashqari, qaytarish muddati va bosqichlarini aniqlashtiruvchi qat'iy reglament joriy qilish zarur. Bu amaldagi umumiy 10 kunlik mavhum muddat qoidasiga aniqlik kiritadi, ya'ni qaytarish arizasi – 24 soat ichida ko'rib chiqilishi,

tovarni qaytarib olish – 3 kun davomida amalga oshirilishi, pul mablag'larini xaridorga qaytarish – 5 kunlik muddat belgilanishi va h.k.

Zamonaviy elektron tijorat platformalarida tovarni qaytarish instituti milliy qonunchilikka nisbatan ancha jadalroq rivojlanmoqda. Natijada, huquqiy tartibga solish tizimi va amaliyot o'rtasida sezilarli tafovut yuzaga kelib, bu iste'molchilar huquqlarining to'liq va samarali ta'minlanmasligiga sabab bo'lmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada qat'iy muddatlarni, elektron platformalarning javobgarlik doirasini hamda soddalashtirilgan qaytarish mexanizmlarini qonunchilik darajasida normativ mustahkamlash iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratning keng ommalashishi natijasida virtual makonda tovarni sotuvchiga qaytarish jarayoni mustaqil huquqiy institut sifatida allaqachon shakllanib ulgurgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi direktivalarida 7–14 kunlik qaytarish muddatlari belgilangan. Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligida esa 7 kunlik sabab ko'rsatmasdan qaytarish qoidasi mavjud. Islom huquqida ham ushbu institutning analogi mavjud bo'lib, unda ham tomonlar o'zaro kelishgan muayyan muddatlar ichida tovarni qaytarish huquqi to'liq kafolatlangan.

1. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunga "Xaridor tovarlarni qabul qilib olganidan keyin yetti kun ichida uning sababini qaytarib berish huquqiga ega" ekanligi haqidagi qat'iy qoidani kiritish lozim. Shu bilan birga, qaytarib olinmaydigan tovarlarga buyurtma asosida tayyorlangan tovarlar, yangi va tez buziladigan tovarlar, shuningdek, onlayn yuklab olingan audiovizual mahsulotlar, kompyuter dasturlari kabi raqamli tovarlarni kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu taklifni quyidagilar bilan asoslantirishimiz mumkin:

1) elektron tijoratning asosiy xususiyatidan biri shundaki, xaridor mahsulotni bevosita ko'rmasdan, ushlab tekshirmasdan va sinab ko'rmasdan turib, faqatgina virtual tavsiflar asosida sotib oladi. Shu sababli, iste'molchining adashish yoki noto'g'ri tasavvurga ega bo'lish ehtimoli yuqori. 7 kunlik "sababsiz qaytarish" huquqining qonuniy kafolatlanishi virtual makonda xaridorning iqtisodiy jihatdan zaifroq bo'lgan mavqeyini kompensatsiya qiladi va uning huquqiy himoyasini an'anaviy savdodagi real imkoniyatlar darajasiga yaqinlashtiradi;

2) agar faqat qaytarish huquqi berilib, cheklovlar belgilanmasa, sotuvchining huquqlari buziladi va suiiste'mol qilish (*abuse of right*) yuzaga keladi. Masalan: buyurtma asosida tayyorlangan tovarni qaytarishda sotuvchi zarar ko'radi, tez buziladigan mahsulotni qaytarish iqtisodiy jihatdan imkonsiz, raqamli mahsulot nusxa olinib, keyin qaytarilishi ehtimoli katta;

3) raqamli mahsulotlar (audio, video, dastur) fizik qaytarish imkoniga ega emas. Nusxa olish orqali "bir martalik foydalanish" emas, balki cheksiz foydalanish imkonini beradi. Shu sababli cheklovlar huquqlar muvozanatini ta'minlaydi (*balancing of interests*).

2. "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga quyidagicha band kiritish taklif etiladi: "Elektron savdo platformalari tomonidan soddalashtirilgan qaytarish (tezkor qaytarish) mexanizmlarini joriy etish majburiy bo'lib, bunda pul mablag'larini qaytarish haqidagi so'rov 3 ish kunida ko'rib chiqilishi, pul mablag'larini qaytarish muddati 14 ish kunidan oshmasligi lozim". Ushbu taklifni ishlab chiqish zaruratini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1) taklif etilayotgan norma milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi, transchegaraviy savdoda ishonchni oshiradi;

2) amaldagi muammolardan biri – qaytarish muddati aniq belgilanmaganligi yoki cho'zilishi bo'lib, taklif etilayotgan normada 3 ish kuni – arizani ko'rib chiqish uchun, 14 ish kuni – pulni qaytarish uchun aniq muddat belgilaydi;

3) bu huquqiy noaniqlikni bartaraf etadi, nizolar sonini kamaytiradi, sudlar uchun aniq mezon (*benchmark*) yaratadi;

4) mazkur norma platformani passiv vositachi emas, balki javobgar subyektga aylantiradi; iste'molchining pulini qaytarish jarayonini kafolatlaydi;

5) iste'molchi huquqi deklarativ emas, amalda ta'minlanadigan huquqqa aylanadi. Bundan tashqari, elektron tijorat platformalarining yuzaga keladigan nizolarni hal etishdagi rolini oshirish zarur. Agar xaridorga sotib olingan tovar ma'qul kelmasa, uni qaytarish bosqichlarini platformaning ommaviy ofertasida aniq va tushunarli aks ettirilishi shart. Shu bilan birga, platforma texnik va funksional jihatdan xaridorga istalgan vaqtda sotuvchi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanish imkoniyatini to'liq ta'minlab berishi lozim.

REFERENCES

- AliExpress. (n.d.). *AliExpress Sale*. <https://www.aliexpress.com/>
- Cheng, J. (2017). *Interim measures for the 7-day unconditional return of goods purchased online (Mainland China)*. Lee, Tsai & Partners. <https://www.leetsai.com/interim-measures-for-the-7-day-unconditional-return-of-goods-purchased-onlinemainland-china>
- Dobroselskyi, M., Madlenak, R., & Laitkep, D. (2021). Analysis of return logistics in e-commerce companies on the example of the Slovak Republic. *Transportation Research Procedia*, 55, 318–325.
- European Parliament and Council of the European Union. (2011). Directive 2011/83/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2011 on consumer rights. *Official Journal of the European Union*, L 304, 64–88.
- Gineva, S. (2016, April 10). *Ecommerce return rates: Statistics and tips to improve yours*. Business2Community.
- Janakiraman, N., & Syrdal, H. (2016). *How to design a return policy*. Harvard Business Review. https://www.researchgate.net/publication/305777205_How_to_Design_a_Return_Policy
- Kawa, A. (2019). *Return in e-commerce as a value for customers from different perspectives*. In *Business Logistics in Modern Management: Proceedings of the 19th International Scientific Conference*. Osijek.
- Maxmudov, L. (2025). Elektron tijoratning halollik tamoyillari asosidagi tahlili [Analysis of e-commerce based on the principles of honesty]. *Journal of Management and Business Methodology*, 11. <https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-tijoratning-halollik-tamoyillari-asosidagi-tahlili>
- People's Republic of China. (2013). *Law "on protection of the rights and interests of consumers"*. China Law Translate. <https://www.chinalawtranslate.com/en/consumer-protection-law-including-2013-amendments/>
- Putra, M. (2026). *Germany ecommerce return rate benchmark 2026*. EightX Blog. <https://eightx.co/blog/germany-ecommerce-return-rate-benchmark>
- Republic of Uzbekistan. (2022, September 29). *Law "On electronic commerce" (No. LRU-792)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>
- Russian Federation. (1992, February 7). *Law "On Protection of Consumer Rights" (No. 2300-1)*. ConsultantPlus. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_305/
- Schmidt, S. L., & Kernan, J. B. (1985). The many meanings (and implications) of "Satisfaction guaranteed". *Journal of Retailing*, 61(4), 89–108.
- Solod, K. A. (2024). Osobennosti zaklyucheniya dogovora kupli-prodazhi v seti Internet [Features of concluding a purchase and sale agreement on the Internet]. *Education and Law*, 6.
- Statista. (2025). *Most returned online purchases by category in the US*. <https://www.statista.com/forecasts/997235/most-returned-online-purchases-bycategory-in-the-us>
- T-Bank.ru (n.d.). *Zakony internet-prodazh [Laws of internet sales]*. T-Bank Secrets. <https://secrets.tbank.ru/voprosy-otvety/zakony-internet-prodazh>
- Tsao, Z., Tyurina, E. A., & Filatov, A. Yu. (2019). Model formirovaniya doveriya onlayn-potrebiteley k sfere elektronnoy trgovli [Model of formation of online consumers' trust in e-commerce]. *Economics and Management*, (4), 42–59.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.